26-MAY

2023

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Toshkent davlat stomatologiya instituti

# TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google Scholar

ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES

ARES

www.ares.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Toshkent davlat stomatologiya isntituti

www.tsdi.uz

"Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 26-mayda Anjumanda Rostov davlat tibbiyot universiteti, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa xalqaro hamda respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamkorligida tashkil etilgan konferensiya asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu to'plam tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishdani muammolariga bag'ishlgan.

Keltirilgan dalillar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun maulliflar mas'uldirlar.

**Toshkent - 2023**

# O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISH - YOSHLARDA TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM OMIL

**Sherzod Abdug'anievich Iskandarov**
Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsent

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston tarixini o'qitish - Yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirishda muhim omillar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, tafakkur, mutafakkirlar, sarkardalar, vatanparvarlar, mahalliy qadriyatlar, an'analar, obidalar muzeylar.

# ОБУЧЕНИЕ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА – ВАЖНЫЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У МОЛОДЕЖИ

**Шерзод Абдуганиевич Искандаров**
Доцент кафедры Общественных наук, Ташкентской медицинской академии

## АННОТАЦИЯ

В данной статье освещены важные факторы формирования исторического мышления у молодежи в преподавании истории Узбекистана.

**Ключевые слова:** молодежь, мышление, мыслители, полководцы, патриоты, национальные ценности, традиции, памятники, музеи.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, bugun kunimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy texnik taraqqiyot XX asr oxiriga kelib faqatgina ko'plab ishlab chiqarish sohalarini texnologiyalashtirishga sabab bo'lib qolmay, balki madaniyat sohasiga, gumanitar bilimlar sohalariga ham kirib keldi.

Millatimizdan etishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, sarkardalar, vatanparvarlar to'g'risida ma'lumotlar kam o'qitilib, ba'zan soxtalashtirildi. Oqibatda yoshlar o'z millatiga mansub qahramonlardan ko'ra o'zga yurtlarning tarixiy shaxslari to'g'risida ko'proq bilim va ma'lumotlarga ega bo'ldi, ularga havas qilish, hatto taqlid qilish holatlari paydo bo'la boshladi. Bu holat xalqimiz va millatimiz, uning tarixiy qadriyatlari uchun fojia edi Inson juda katta miqdordagi, tasavvur qilolmaydigan, masalan, o'ta katta tezlik,

oʻta katta hajm, oʻta katta masofa yoki ogʻirlikni sezgilari orqali bila olmay, balki oʻz tafakkuri orqali bilib olishi mumkin. Tafakkur – ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bogʻliq muhim bir yangilik qidirish va u sari fikran olib chiqishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, inson oʻz tafakkuri orqali voqelikni analiz va sintez qilishda obʼektni bevosita va umumlashtirib oʻz ongida aks ettirish jarayoni hisoblanadi. Tafakkur amaliy faoliyat asosida inson hissiy bilish jarayonlarida paydo boʻladi va shu bilan birga inson hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga ham chiqib ketadi. Mazkur mulohazalardan kelib chiqib, inson tafakkurining taʼlimdagi oʻrni va ahamiyati muhim ekanligini koʻrishimiz mumkin. Demak, inson tevarak-atrofdagi voqelikni bilishi uchun fikr yuritish jarayonlari va tafakkur shakllari yaxshi rivojlangan boʻlishi lozim [36-44 b.].

Tarixiy tafakkurni shakllantirish orqali umuman jamiyat, ayniqsa, yoshlar ongiga Vatanga sadoqat, oʻziga va yurt kelajagiga ishonch, zamonaviy bilim, kasb-kor va yangiliklarga intilish, oʻzgarishlarga tayyorlik ruhini singdirib borishdek oʻta muhim masalaga etarlicha eʼtibor berilmadi [2].

Taʼlim-tarbiya jarayonida barcha amalga oshirilayotgan ishlarning qanchalik darajada samarali boʻlishi, avvalambor, oʻqituvchi va tarbiyachining kasbiy layoqati va tayyorgarligiga bogʻliqdir. Oʻqituvchi oʻquvchilarga singdirmoqchi boʻlayotgan tushuncha yoki bilim, uni muvaffaqiyatli amalga oshirish usul va metodlarini, avvalo, oʻzi puxta egallagan boʻlishi hamda yuqori darajadagi fikr va tafakkur sifatlariga ega boʻlishi lozim. Bu xislatlar, albatta, muvaffaqiyatlarga erishish garovi boʻladi. Shuning uchun ham oʻqituvchining hal qiluvchilik salohiyatiga baho berib, «Har qanday taʼlim va tarbiyada eng asosiy omil – muallim, uning tafakkur dunyosidir», degan edi mashhur pedagoglardan biri D.Disterveg. Shu oʻrinda donishmandlardan yana biri J.Fabrning «Fanda eng ishonchli koʻmakchi oʻz aqling, tafakkuringdir», [93-b.] degan hikmatli soʻzini bugungi kunda ham oʻqituvchining eng ishonchli koʻmakchisi, uning aqli va tafakkuridir degan maʼnoda qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Maʼlumki, xorijda tarix taʼlimi uch, yaʼni Yevropa, Amerika va Osiyo modellari asosida olib boriladi. Masalan, Amerikada oʻquvchilarning muayyan fan va kasbga qiziqishi, qobiliyat va iqtidori, aralash qiziqishi boʻyicha guruhlarga boʻlish tizimi qaror topgan. Mazkur taʼlim tizimi Angliya, Germaniya, Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda asosiy yondashuvga aylangan. Yaponiyada esa, aynan inson aqliy qobiliyati va innovatsion intilishiga alohida eʼtibor qaratilganligining guvohi boʻlamiz [51-52 b.].

O'zbekistonda tub o'zgarishlar strategiyasi, nafaqat mahalliy qadriyatlar, tajriba va an'analar, balki ilg'or xorij tajribasidan foydalanishga asoslangan. O'zbekiston milliy ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida boshqa mamlakatlar yutuqlarini hisobga olish va ijodiy foydalanishga intilmoqda.

O'zbekiston tarixi yoshlarda bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va natijalarini, milliy, huquqiy davlatchilikni barpo etish, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlarini o'rgatadi va yoshlarda ilmiy dunyoqarashni, siyosiy madaniyatni tarbiyalaydi, jamiyatda o'z o'rnini to'g'ri belgilashga ko'maklashadi. Eng muhimi davlatning amalga oshirayotgan barcha sohalardagi islohotlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglab etadi.

Xalqimizning buyukligi, kuchi, uning boy ma'naviy merosga ega ekanligi bilan belgilanadi. Xalqimizning ma'naviy poydevori juda qadimiy va mustahkam hisoblanadi va bunga kelajak sari intilayotgan yoshlar uchun bu boy ma'naviy meros mustahkam tayanchdir. Uning zaminida tinimsiz va mashaqqatli mehnat, har qanday to'siqlarni engish, ilmga va ziyoga intilish kabi hislatlar mavjud va u O'zbekiston tarixini o'qitish orqali yoshlarga singdiriladi [15-16 b.].

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2015 yil 12 yanvarda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi tashkiliy yig'ilishida yoshlarni tarix saboqlari bilan, tarix haqiqati bilan qurollantirish lozimligi haqida gapirib: «Tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'lini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q», [1 b.] - deb alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Bu masalaga 2016 yil 7 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tadbirda so'zlagan nutqida yoshlar tarbiyasiga alohida to'htalib, unda «Bolalarimizni birovlarning qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy tarixiga tayanamiz»[7 b.] va 2016 yil 14 dekabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida ham: «Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak

intelektual va ma'naviy salohiyatiga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi» [2 b.] – deb, yoshlarga e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan da'vatlarini va unga monand ravishda: «Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodlarimiz nima deb yozganlar: «Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbyalariga bog'liq» [22 b.] – degan fikrlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Yuqorida keltirilgan tajribalardan ko'rinadiki, o'tkazilgan tajribalar o'qituvchining butun ta'lim jarayonidagi faoliyati o'z o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini o'stirish, qat'iy xulosa chiqarish, to'g'ri va ilmiy asoslangan tushunchalarga ega bo'lish kabi xislatlarini o'stirishga qaratilishi lozim. O'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda mustaqil ishlarning o'rni katta. Mazkur fikrning isboti va o'quvchilarda o'tkazilgan tajribalarga asoslanib, tarix darslarida o'quvchilar tafakkurini shakllantirishda quyidagi usullardan ham foydalanish o'rinli deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston tarixini o'qitish - Yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirishda yangicha yondashuvlar asosda olib borish, Kadrlar tayorlashda songa emas sifatga e'tibor berish hamda har bir fanni o'qitishda mutaxasislar tomondan o'qitilmasligi, Ta'lim-tarbiya jarayonida barcha amalga oshirilayotgan ishlarning qanchalik darajada samarali bo'lishi, avvalambor, o'qituvchi va tarbiyachining kasbiy layoqati va tayyorgarligiga bog'liqdir. O'zbekistonning eng yangi tarix fanini o'riniga O'zbekiston tarix fanini o'qitishni joriy qilish o'ta muhim hisoblanadi. O'zbekiston tarix fanini darslarga tarixiy obidalar va muzeylarga olib borib o'qitish kalendar rejalar mavzular kiritilishni ta'minlash asosiy masalalaridan biri hisoblonadi.

## REFERENCES

1. Surxondaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti «Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar» kafedrasi katta o'qituvchisi; Valiev E.Ch. Surxondaryo viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

instituti «Pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti» kafedrasi katta o'qituvchisi Nurmamatov A.Sh., Maktab ta'limi Betlar 36-44 2015 yil son-10.
2. https://regulation.gov.uz/uz/d/31751
3. O'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish. – T., «Sharq», 2000. –93-b.
4. O'zbekistonda ta'lim: talab va taklif mutanosibligi. Inson tarraqqiyoti tug'risida ma'ruza Toshkent. 2007/2008. - B. 51-52.
5. Ismailov A.F. Akademik litseylarda tarix fanini o'qitishning innovatsion texnologiyalarini takomllashtirish dissertatsiya qo'lyozma T. 2018 betlar 15-17.
6. «Ishonch», 2015 yil 13 yanvar, № 6.1-bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. –B. 23. // «Ma'rifat», 2016 yil 8 dekabr, № 98. 4-bet.
8. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2017. –B. 14. // «Halq so'zi», 2016 yil 15 dekabr, № 247. 2-bet.
9. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017. – B. 22.

## CONTENTS

## MUNDARIJA

**1.** Narkulov, S. D. (2023). TALABA-YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY FANLARNING O'RNI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 6-9.

**2.** Назаров, Қ. Н. (2023). ИЖТИМОИЙ ФАНЛАР ТИЗИМИ ВА ТАЪЛИМИНИНГ ЯНГИЛАНИШ ДИАЛЕКТИКАСИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 10-16.

**3.** Балтабаева, А. Ю. (2023). НАВЫКИ АКАДЕМИЧЕСКОГО ПИСЬМА В ВУЗАХ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 17-21.

**4.** Мухамедова, З. М. (2023). РОЛЬ МЕДИЦИНСКОЙ ГУМАНИСТИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 22-31.

**5.** Отамуратов, С. (2023). ВАЖНАЯ РОЛЬ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛОГИИ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 32-36.

**6.** Власова, В. Н. (2023). РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В ФОРМИРОВАНИИ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАЦИЙ СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions* , *4*(1), 37-39.

**7.** Abilov, O. (2023). TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 40-45.

**8.** Камилов, Ф. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ТИЗИМИДА ИЖТИМОИЙ ИШ: ТАЖРИБА ВА АМАЛИЁТ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 46-49.

**9.** Himmet, K. (2023). HEALTH CARE ENTREPRENEURSHIP: SUCCESS STORİES AND CASE STUDİES. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 50-54.

**10.** Шолудченко, И. Е. (2023). РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК В УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЕ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions* , *4*(1), 55-59.

**11.** Дуйсенова, С. М. (2023). ФОРМИРОВАНИЕ ГУМАНИСТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКИХ ВУЗОВ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 60-65.

**12.** Norqulov, D. T. (2023). AXLOQSHUNOSLIKDA KASBIY AXLOQ MASALALARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 66-72.

**13.** Otamurotov, S. (2023). GLOBALLASHUV JARAYONIDA FANNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 73-78.

**CONTENTS** **MUNDARIJA**

**14.** Абдуллаева, Р. М. (2023). КОММУНИКАТИВНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 79-85.

**15.** Латипова, Н. (2023). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИЛЬНОЙ РАБОТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 86-91.

**16.** Умирзакова, Н. А. (2023). БИОЭТИКА ФАНИ АКСИОЛОГИК ВАЗИФАСИНИНГ ШИФОКОР КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ТАЪСИРИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 92-96.

**17.** Atamuratova, F. S. (2023). ZAMONAVIY TIBBIY TA'LIMDA BIOETIKANI O'QITISHNING ZARURIYATI VA MUAMMOLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 97-101.

**18.** Alimova, S. G. (2023). BO'LAJAK BOSHQARUVCHILARNI O'QITISHDA INTERAKTIV USULNI QO'LLASH ZARURATI VA ICHKI IMKONIYATLAR. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 102-105.

**19.** Yuldasheva, L. S. (2023). HYGIENE MEASURES IN IBN SINO'S WORKS. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 106-108.

**20.** Niyozova, N. S. (2023). TIBBIYOT OLIY O'QUV YURTLARIDA O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 109-112.

**21.** Iskandarov, S. A. (2023). O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISH - YOSHLARDA TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM OMIL. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 113-117.

**22.** Norqulov, D. T. (2023). TIBBIY OLIY O'QUV YURTLARIDA IJTIMOIY FANLARNI O'QITISHNING AHAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 118-121.

**23.** Абдурахманова, Н. Х. (2023). ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ВА ДЕМОКРАТИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions* , *4*(1), 122-124.

**24.** Ashrapova, M. M. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY ISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 125-128.

**25.** Tashkenbayev, T. T. (2023). THE ROLE OF SOCIO-HUMANITARIAN DISCIPLINES IN THE FORMATION OF A MEDICAL WORKER OF MODERN EDUCATION. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 129-131.

**26.** Tashkenbayeva, D. (2023). FEATURES OF THE INTRODUCTION OF THE HUMANITIES STUDIES IN MEDICAL EDUCATION THROUGH THE STUDY OF THE HISTORY OF THE MEDICINE. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 132-134.

CONTENTS MUNDARIJA

**27.** Turdimurodov, B. Q. (2023). NOAN'ANAVIY TAQDIMOTLAR YARATISH. ELEKTRON DARSLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 135-138.

**28.** Abduraxmanov, S. (2023). MENEJMENT FANINING YUTUG' VA KAMCHILIKLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions* , *4*(1), 139-142.

**29.** Бердиева, Н. А. (2023). СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОКОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 143-148.

**30.** Бобоева, З. Н. (2023). ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДА ВА ТАЪЛИМДА ТИББИЙ ЭКОЛОГИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 149-152.

**31.** Ермахаматов, У., & Сайдикаримова, К. (2023). РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ НАУК В ВЫСШЕМ МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 153-155.

**32.** Мадиярова, Ф. У. (2023). ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ УПРАВЛЕНИЯ И ДОСТИЖЕНИЕ ПОСТАВЛЕННЫХ ЦЕЛЕЙ В ИЗУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА МЕНЕДЖМЕНТ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 156-158.

**33.** Аскарова, Н. А. (2023). РОЛЬ ГУМАНИТАРНЫХ ДИСЦИПЛИН В ГУМАНИЗАЦИИ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 159-164.

**34.** Сахновская, Е. Г., & Чемезов, С. А. (2023). АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ КРЕАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ (НА ПРИМЕРЕ ТЕРМЕЗСКОГО ФИЛИАЛА ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ). *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 165-169.

**35.** Эрназаров, Д. З. (2023). ИЖТИМОИЙ ХИЗМАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР УЙҒУНЛИГИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 170-174.

**36.** Berdiyeva, X. X., & Shokirova, F. J. (2023). TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIGA IJTIMOIY FANLAR O'QITILISHI MUHIMLILIGI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 175-178.

**37.** Choriyev, N. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA G'AMHO'RLIK VA E'TIBORNING ISTIQBOLI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 179-183.

**38.** Bozorov, S. I. (2023). NMDA RETSEPTORINING SOG'LOM VA ALKOGOL ISTE'MOL QILUVCHI INSONLAR XOTIRASIGA TA'SIRI BIOETIKA MISOLIDA. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 184-185.

CONTENTS MUNDARIJA

**39.** Shokirova, F. J., & Berdiyeva, X. X. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA INSON QADR-QIMMATI, XALQ MANFAATI OLIY QADRIYATDIR. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 186-190.

**40.** Аккасов, Б. К. (2023). ПЕРВАЯ ВРАЧ-КАЗАШКА, МЕДИК-ПЕДАГОГ – АСФЕНДИЯРОВА УММИ-ГУЛЬСУМ ДЖАФАРОВНА. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 191-194.

**41.** Boboev, F. (2023). XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASINING SOLIQ SIYOSATIDAGI IMTIYOZLAR. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 195-198.

**42.** Уразова, Ў. У. (2023). ТАЛАБА ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ҚАДРИЯТЛИ МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАҲАЛЛАЛАРНИНГ ЎРНИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 199-203.

**43.** Umarova, S. R. (2023). TIBBIYOT SOHASIDA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINING AHAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 204-208.

**44.** Шавкатов, Ш. Ш. (2023). ВИДЫ ЗАБОЛЕВАНИЙ, ВСТРЕЧАЮЩИХСЯ У МИГРАНТОВ (СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ОПРОС). *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 209-213.

**45.** Салимов, Ш. Ю. (2023). МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: АНАЛИЗ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕГУЛИРОВАНИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, *4*(1), 214-222.